

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

4-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/4 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Abduraxmonov Mirsaid Muzaffarovich</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING HUQUQIY ASOSLARI YARATILISHI	10-16
<i>Atamuratova Dilafroz</i> TURKISTON VAQTLI MATBUOTI TARIXI: XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI	17-22
<i>Abdushukurova Iqbol</i> TARIXIY KVESTLARNI TASHKIL QILISH USULLARI	23-27
<i>Redjapov Doniyor</i> JANUBIY OROLBO'YI AHOLISI HARBIY SAN'ATINING TARIXIY ILDIZLARI XUSUSIDA	28-31
<i>Sultanov Samandar</i> QUYI ZARAFSHON VODIYSI GEOGRAFIK XUSUSIYATI: PALEOEKOLOGIYASI JARAYONLARIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR	32-35
<i>Matyakubov G'ayrat</i> XORAZM VOHASIDA IJTIMOIIY-IQTISODIY VA ETNIK-MADANIY MUNOSABATLAR RIVOJLANISHIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR (XIII-XV ASRLAR).....	36-39
<i>Eshkuvatov Muhammad Keldiyor o'g'li</i> MARKAZIY OSIYO BOZORLARI (XIX ASR YEVROPALIK SAYYOHLAR NIGOHIDA)	40-45
<i>G'aniyev Mirjalol</i> QADIMGI TURKLARDA IJTIMOIIY HAYOT	46-51

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Abdullaev Altinbek</i> KORXONALARDA UN MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRARISH LOYIHASI BOSH BYUDJETINING METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	52-66
<i>Latipov Ashur Ali, Umarova Muzira</i> INVESTITSIYA STRATEGIYASI VA UNING MENEJMENTDAGI O'RNI	67-71
<i>Rustamova Sayyora</i> STRATEGIK BOSHQARUV-RAQOBAT USTUNLIGINING ASOSI	72-77
<i>Буранова Лола, Арипова Азиза</i> РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТА ДОСУДЕБНОГО РАЗРЕШЕНИЯ НАЛОГОВЫХ СПОРОВ	78-87
<i>Maxkamov Navruzjon Tuxtamishovich</i> KORXONALAR BOSHQARUVIDA "YASHIL" IQTISODIYOT TAMOIYLLARINI QO'LLASH AHAMIYATI	88-94

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Saidov Hakim G'afurovich</i> TALABALARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH – DAVLAT SIYOSATI DARAJASIDA	95-98
<i>Kadirova Ziyoda</i> ILMIY IJODNING IJTIMOIIY, MADANIY VA TARIXIY O'LCAMLARI	99-104

<i>Muzaffarov Navruzxon Baxronovich</i> SHAYX XUDOYDOD VALINING INSON VA OLAM MUNOSABATLARIGA OID QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI	105-108
<i>Raxmatova Mexrinoz Majitovna</i> YOSHLAR MA'NAVIY SALOHİYATINI YUKSALTIRISH BORASIDAGI DAVLAT SIYOSATINING NAZARIY-HUQUQIY VA FALSAFIY ASOSLARI	109-113
<i>Karimova Lola Muzafarovna</i> IJTIMOIY MOBILLIK NAZARIYASIGA YONDASHUVLARNING TARIXIY TAHLILI	114-119
<i>Jumayeva Shahlo Suyunovna</i> JAN POL SARTRNING EKZISTENSIAL FALSAFASIDA ERKINLIK VA YOLG'IZLIK MASALALARINI YORITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	120-125
<i>Djurayev G'olib</i> JAN POL SARTR VA ALBER KAMYU FALSAFIY QARARSHLARIDA ERKINLIK MASALASI	126-130
<i>Rajabov O'tkirjon</i> KONSENSUS MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA "TEMUR TUZUKLARI" ASARINING AHAMIYATI	131-134
<i>Bekmuhammadova Sabrina Ismoil qizi</i> GENDER ZO'RAVONLIGIGA QARSHI KURASH CHORALARI	135-139
<i>Xudoykulov Azamat, Beshimova Aziza</i> MA'NAVIY BARKAMOL INSON TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI	140-144

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Abduganiyeva Djamila Rustamovna</i> MACHINE TRANSLATION POST-EDITING THROUGH A HERMENEUTIC LENS	145-151
<i>Murtazayeva Xadicha</i> INGLIZ VA O'ZBEK TIBBIY TERMINOLOGIYASINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI	152-155
<i>Несунбаева Саодатхан</i> ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕДАЧИ АМЕРИКАНСКИХ ДИАЛЕКТИЗМОВ И ПРОСТОРЕЧИЙ В РУССКИХ ПЕРЕВОДАХ "ТОМА СОЙЕРА"	156-160
<i>Axmedjanova Farida, Toirova Shohida</i> XX ASRDA AYOL OBRAZINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI	161-165
<i>O'rinova Shoxsanamxon Nosirjon qizi</i> TAHDID NUTQIY AKTLARI: LINGVOPRAGMATIK TAHLIL VA MENASIV KOMMUNIKATSIYA XUSUSIYATLARI	166-170

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Salaev Nodirbek</i> PENITENSIAR TIZIM VA UNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O'RNI	171-178
<i>Турсунов Ойбек Батирович</i> МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СОТРУДНИЧЕСТВА ГОСУДАРСТВ РЕГИОНА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	179-184
<i>Xakimova Inobatxon</i> XOTIN-QIZLAR HUQUQLARINING XALQARO HUQUQ DOIRASIDA SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI	185-191

<i>Мардонов Амиржон Шерзод угли</i> ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ПРИ ПРИМЕНЕНИИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СИСТЕМЕ БАНКОВСКОГО СКОРИНГА	192-202
<i>Jonuzoqova Yulduz Izzatulla qizi</i> AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI TRANSMILLIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA KONVENSIONAL VA INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH	203-207
<i>Xolmo'minov Shavkat Jumaevich</i> EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI HUQUQIY TA'MINLASH SOHASIDAGI MUHIM TASHABBUSLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	208-215
<i>Khudayberganova Nigina To'liqin qizi</i> THE NOTION AND CODIFICATION OF THE LAW ON SPECIAL MISSIONS IN INTERNATIONAL LAW	216-221
<i>Саидов Бобур Бахромжонович</i> МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО В ВОПРОСАХ ИНТЕРНЕТ-ЮРИСДИКЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ УНИФИКАЦИИ ПРАВОВЫХ НОРМ И ПЕРСПЕКТИВЫ УЧАСТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В ГЛОБАЛЬНЫХ МЕХАНИЗМАХ РЕГУЛИРОВАНИЯ ...	222-229
<i>Normurodova Behro'za Xolmo'minovna</i> RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASH VA TAHLIL QILISHDA INTERPOL VA EUROPOL TAJIRIBASI: O'ZBEKISTON UCHUN AMALIY AHAMIYATI	230-236
<i>Qilichova Kamola Luqmonxon qizi</i> DINIY MAZMUNDAGI MATERIALLARNI QONUNGA XILOF RAVISHDA TAYYORLASH, SAQLASH, OLIB KIRISH VA TARQATISH JINOYATLARINING YURIDIK TARKIB BELGILARI	237-248
<i>Shagilov Pulatbek Koptleuovich</i> BEZORILIKNING VIRTUAL YUZI: HUQUQIY BAHOLASH VA JAVOBGARLIK MASALALARI	249-256
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Imomov Sirojiddin Ilxomovich</i> SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA KASBIY-PEDAGOGIK TA'MINOTINING AHAMIYATI	257-263
<i>Khayrova Madina Rasimovna</i> NATYURMORT JANRIDA ISHLAGAN RASSOMLAR ASARLARINING REKONSTRUKTIV TAHLILI	264-269
<i>Mirkasimova Zilola Alisherovna</i> MAKTABGACHA YOSHDA NUTQ RIVOJI BOSQICHLARI	270-273
<i>Xudaykulova Shaxlo Mamaniyozovna</i> AXLOQIY RIVOJLANISH VA NEYROPEDAGOGIK USULLARNING O'ZARO TA'SIRI	274-278
<i>Shakirova Dildora Abdumalikovna</i> NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI XORIJIY VA MILLIY TAJRIBA ASOSIDA BAHOLASH	279-285
<i>Djurayeva Nargis Narkulovna</i> TABIY FANLAR DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INTENSIV METODLARNING QO'LLANILISHI	286-290

Baltayeva Ma'mura, Davletova Bikajon

MEDIA LITERACY TEACHING METHODOLOGY 291-294

Received: 05 May 2025
Accepted: 15 May 2025
Published: 30 May 2025

Article / Original Paper

LINGUISTIC FEATURES OF ENGLISH AND UZBEK MEDICAL TERMINOLOGY

Murtazaeva Xadicha Nuriddinovna

English teacher of the Termiz branch of the
Tashkent Medical Academy

E-mail: xadichamurtazayeva7777@gmail.com

Abstract. This article discusses the linguistic features of English and Uzbek medical terminology, their synonymy, antonymy, and thematic classification. Their etymological aspects are explained using specific examples.

Keywords: medical terminology, synonymy, antonymy, thematic classification.

INGLIZ VA O'ZBEK TIBBIY TERMINOLOGIYASINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Murtazayeva Xadicha Nuriddinovna

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Termiz filiali
ingliz tili o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tibbiy terminologiyasining lingvistik xususiyatlari, ularning sinonimlik, antonimlik xususiyatlari, ularning tematik tasniflash masalalari yoritilgan. Ularning etimologik jihatlari aniq misollar yordamida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: tibbiy terminologiya, sinonimlik, antonimlik, tematik tasniflash.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N24>

Kirish. Tibbiyot sohasi atamalarining aniq va tushunarli bo'lishi juda muhim. Chunki tibbiy terminlar bemorlar va shifokorlar o'rtasidagi muloqotni osonlashtiradi va chalkashliklarning oldini oladi. Ingliz va o'zbek tillaridagi tibbiy terminlarni o'rganish xalqaro tibbiyot olamida erkin muloqot qilish va malakali mutaxassis bo'lishga yordam beradi. Tibbiy terminlar ustida o'tkazilgan tadqiqotlarning deyarli barchasi ularning aksariyati yunon va lotin tillaridan olinganligini tasdiqlaydi. Masalan, «cardiology» (kardiologiya) so'zi yunoncha «kardia» (yurak) va «logos» (ta'limot) so'zlaridan kelib chiqqan. Shu bilan birga, o'zbek tibbiyot terminlari asosan rus tili orqali shakllanganligi va ayrim atamalar o'zbek tiliga moslashtirilganligi borasida ham ayrim ma'lumotlar mavjud. Masalan, bugun nutqimizda keng qo'llaniluvchi «pediatriya» (bolalar kasalliklari bo'yicha fan) atamasi ham lotincha «paediatrica» so'zidan olinganligi fikrimizning isboti desak adashmagan bo'lamiz. Tibbiy terminlarning lingvistik xususiyatlari ularning tuzilishi, kelib chiqishi va qo'llanilish uslublariga bog'liq.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tibbiy terminlar asosan tarkibiy qismlarga ajraladigan murakkab so'zlardan iborat. Masalan, «gastroenterology» (gastroenterologiya) so'zi «gastro» (oshqozon) va «entero» (ichak) so'zlarining birikmasidan hosil bo'lgan. O'zbek

tilida ushbu murakkab soʻzlar odatda oʻzbekchalashtirilgan shaklda uchraydi: «kardiologiya» (yurak kasalliklarini oʻrganish), «nevrologiya» (asab tizimi kasalliklarini oʻrganish) kabi [1].

Tibbiy terminlarning maʼnolari aniq va doimiy boʻlib, umumiy nutqdan farq qiladi. Ularning maʼnolari koʻpincha xalqaro miqyosda oʻzgarmaydi. Masalan, «diagnosis» (diagnostika) yoki «therapy» (terapiya) atamaları barcha tillarda deyarli bir xil maʼnoga ega. Baʼzi tibbiy atamalar tarjima qilinmaydi va xalqaro shaklda ishlatiladi: «antibiotic» – «antibiotik», «virus» – «virus» kabi.

Ingliz tilidagi tibbiy terminlar odatda oddiy tuzilishga ega boʻlib, koʻpincha ikki yoki undan ortiq soʻzdan iborat boʻladi: «blood pressure» (qon bosimi), «heart failure» (yurak yetishmovchiligi). Oʻzbek tilida esa bu terminlar koʻpincha qoʻshma soʻz yoki izohlovchi tuzilma shaklida ifodalanadi: «yurak yetishmovchiligi», «qon aylanish tizimi kasalliklari» kabi [3].

Ingliz tilidagi tibbiy terminlar odatda yumshoqroq va choʻzilgan ohangda talaffuz qilinadi: «neurology» (nyurologi), «psychiatry» (psixiatriya). Oʻzbek tilidagi tibbiy terminlar esa fonetik jihatdan rus tili taʼsirida shakllangan boʻlib, baʼzan ruscha talaffuzga yaqin boʻladi: «rentgen», «anesteziya».

Tibbiy terminologiyada sinonimlik va antonimlik alohida oʻringa ega boʻlib, ilmiy aniq terminlar va umumiy tibbiy atamalar orasidagi oʻzaro bogʻliqlikni tushunishga yordam beradi. Ingliz va oʻzbek tillarida bu hodisa turli xil koʻrinishda namoyon boʻladi. Quyida bu jihatlar batafsil tahlil qilinadi [4].

Tahlil va natijalar. Bolalar kasalliklariga oid tibbiy terminlar **leksik-semantik** jihatdan turli guruhlariga ajratiladi va **sintaktik** jihatdan soʻz birikmalari yoki gap tarkibida qoʻllanilishiga qarab tahlil qilinadi. Quyida bu atamalarni tahlil qilamiz. Baʼzi kasalliklar xalq tilida bir necha nom bilan yuritiladi: «Suvchechak» – «Varisella», «Ichburugʻ» – «Dizenteriya», «Koʻrichak» – «Appenditsit», «Shamollash» – «Oʻtkir respirator infeksiya (ORI)» kabi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki sinonimlik asosan ikki soʻz turkumi doirasida yuz beradi.

Baʼzi tibbiy terminlar oʻzaro zid maʼnoni anglatadi. Tibbiy terminlarda antonimlik asosan bir til doirasida sodir boʻladi, bu kishilardagi hissiy jarayonlar bilan bogʻliq boʻladi. «**Gipertermiya**» (tana haroratining ortishi) – «**Gipotermiya**» (tana haroratining pasayishi); «**Gipertrofiya**» (toʻqimalarning oʻsishi) – «**Atrofiya**» (toʻqimalarning kichrayishi) shular jumlasidandir [2].

Tibbiy terminologiyada namoyon boʻluvchi antonimlik hodisasini polisemiya bilan adashtirmasligimiz kerak. Negaki, ulardagi polisemantik xususiyatlar asosan kontekstlar taʼsirida turli mazmun kasb etadi. Masalan, «Raxit» – tibbiyotda D vitamini yetishmovchiligi natijasida yuzaga keladigan kasallik, xalq orasida esa bolaning jismonan zaifligi sifatida tushuniladi. «Allergiya» – tibbiy maʼnoda immun tizimining ortiqcha reaksiya berishi, baʼzan esa koʻngil aynishi yoki oziq-ovqat nojoʻya taʼsiri maʼnosida ishlatiladi [5].

Ingliz tilida **pediatric diseases** (bolalar kasalliklari) bilan bogʻliq terminlarning leksik-semantik xususiyatlari ham oʻziga xos boʻlib, tibbiyot, anatomiya va patologiya bilan uzviy bogʻliq holda, ularning sinonimlik, antonimlik, polisemantik xususiyatlarini quyidagi kategoriyalar asosida ochib beradi:

Sinonimiya. Pediatrik kasalliklar bir necha sinonimik atamalarga ega boʻlishi mumkin. Masalan: *Chickenpox* (oddiy xalq tilida), *Varicella* (ilmiy tibbiy atama) sinonimlik hosil qiladi; *Whooping cough* bilan *Pertussis*, *German measles* bilan *Rubella*; *Hand, foot, and mouth disease* (HFMD) bilan *Coxsackievirus infection* ham oʻzaro sinonimlik hosil qiladi.

Antonimiya. Tibbiy terminlarda antonimiya hodisasi kam uchrasa-da, bolalar kasalliklari bilan bog'liq terminlarda qarama-qarshi xususiyatlarga ega bo'lgan bir qancha atamalar mavjud: *Acute bronchitis* (o'tkir bronxit) va *Chronic bronchitis* (surunkali bronxit); *Hyperthermia* (haddan tashqari issiqlik) hamda *Hypothermia* (haddan tashqari sovuqlik) ushbu kategoriyaga misol bo'la oladi [6].

Hiponimiya va Gipernimiya. Ba'zi terminlar umumiyroq guruhga (gipernimiya) va tor ma'nodagi guruhlariga (hiponimiya) bo'linadi:

Giperonim (yuqori tushunchalar)	Hiponimlar (quyi tushunchalar)
Infeksion kasalliklar	Skarlatina, Qizamiq, Ko'kyo'tal, Parotit
Oshqozon-ichak kasalliklari	Gastrit, Enterit, Disbakterioz
Nafas yo'llari kasalliklari	O'pka yallig'lanishi, Bronxit, Angina
Neyrologik kasalliklar	Epilepsiya, Bosh miya falaji
Allergik kasalliklar	Bronxial astma, Atopik dermatit

Polisemiya (Polysemy). Ba'zi tibbiy atamalar bir necha ma'noga ega bo'lishi mumkin: **Croup** – nafas yo'llarining torayishi bilan kechuvchi bolalar kasalligi, lekin ba'zan **krupoz pnevmoniya** degan ma'noda ham ishlatiladi. **Rash** – odatda teridagi toshmalarni anglatadi, lekin ba'zan allergik reaksiya yoki yuqumli kasallik belgisi sifatida ishlatiladi [2].

Ba'zan tibbiyotda oddiy so'zlar kasallik nomi sifatida qo'llaniladi: *Slapped cheek syndrome* (Eritema infectiosum – “tarsaki tushgan yonoq sindromi”) – bu nom kasallikda yuzning qizarib ketishi bilan bog'liq. *Strawberry tongue* (*Qulupnay til* deya tarjima qilinuvchi ushbu birlik til yuzasida qizil dog'lar paydo bo'lganda qo'llaniladi).

Tibbiy terminologiya o'ziga xos sintaktik xususiyatga ega. Biz buni quyidagi misollar orqali ko'rishimiz mumkin. Ushbu guruhga mansub terminlar so'z birikmalari va gap tarkibida turli sintaktik shakllarda qo'llaniladi [2].

Tibbiy terminlar asosan **aniqlovchi + aniqlanuvchi** yoki **kesim + to'ldiruvchi** ko'rinishida ishlatiladi.

So'z birikmasi	Tuzilishi	Misol
Sifat +ot	Kasallik nomi sifatlovchi orqali aniqlanadi.	O'tkir bronxit, yuqumli gepatit
Ot+ot	So'z birikmasi kasallik nomini kengaytiradi.	Bolalar anemiyasi, tug'ma yurak nuqsoni
Ot+fe'l	Jarayon yoki davolashni bildiradi	Vitamin yetishmovchiligi

Tibbiy terminlar gap tarkibida quyidagi shakllarda uchraydi:

Kesim sifatida: «Bola *suvchechak* bilan kasallangan». «Unda *gipovitamin*oz kuzatilmoqda».

To'ldiruvchi sifatida: «Shifokor *bronxitga chalingan* bolani tekshirdi»; «Ushbu dori *rahitga chalingan* bolalar uchun tavsiya etiladi».

Sintaktik jihatdan bolalar kasalliklari bilan bog'liq terminlar quyidagi tuzilmalarda ishlatiladi:

Oddiy terminlar (Simple terms): Measles (qizamiq), Mumps (epidemik parotit), Polio (poliomielit), Asthma (astma).

Birikma terminlar (Compound terms): Hand, foot, and mouth disease – murakkab ibora, Middle ear infection – «o'rta quloq yallig'lanishi», Acute respiratory distress syndrome (ARDS) – o'tkir nafas yetishmovchiligi sindromi.

Attributiv tuzilma (Attributive structures). Attributiv tuzilmalarda tibbiy kasallik nomi oldida belgilovchi so'z ishlatiladi: *Congenital heart disease* (tug'ma yurak kasalligi), *Viral pneumonia* (virusli pnevmoniya), *Bacterial meningitis* (bakterial meningit) kabi [4].

Ba'zi kasallik nomlari egalik shakllarini olgan holda keladi: *Kawasaki's disease* – bolalarda yurak qon tomir tizimini zararlaydigan kasallik, *Hodgkin's lymphoma* – limfa tizimiga ta'sir qiluvchi o'sma kasalligi. *Reye's syndrome* – bolalarda ensefalopatiya bilan bog'liq xavfli sindrom.

Prepozitsiyali tuzilma (Prepositional structures) orqali shakllanuvchi tibbiy terminlar ham faol tibbiy terminologik guruhga mansub hisoblanadi.: *Inflammation of the lungs* (o'pkalarning yallig'lanishi), *Infection of the throat* (tomoq infeksiyasi), *Swelling in the lymph nodes* (limfa tugunlarining shishishi) kabi. Ushbu guruhga mansub tibbiy birliklar asosan ingliz tilida kuzatiladi [2].

Xulosa. Bolalar kasalliklariga oid tibbiy terminlar leksik-semantik jihatdan sinonimlik, antonimlik, giperonimiya, giponimiya va polisemantik munosabatlarga ega bo'lib, sintaktik jihatdan so'z birikmalari va gap tarkibida turlicha: oddiy terminlar, birikmalar, atributiv tuzilmalar, egalik shakllari va prepozitsiyali tuzilmalar shakllarida namoyon bo'ladi. Bu terminlar xalq tilidagi variantlari bilan farqlanadi va rasmiy tibbiy atamalardan osonroq tushuniladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Barbara Janson Koen. Lippincott Williams & Wilkins; Tibbiyot terminologiyasi. Qo'llanma. 7-nashr. 2016.
2. Bolliyev M.N, Lotin tili va tibbiyot terminologiyasi – Toshkent: Ilm ziyo, 2005. – 256 b.
3. Volodina M.N. Terminologik nominatsiya nazariyasi. 1997. – S.180.
4. Авербух К. Й. Общая теория термина. – Иваново: Ивановский государственный университет, 2004. – С.52.
5. Лейчик В. М. Терминоведение: Предмет, методы, структура. – М.КомКнига, 2006. – С. 85.
6. Реформатский А. А. Введение в языковедение: Учебник для вузов. – М. 1947. – 544 с.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/4 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).